

## NAZAR ESHONQULNING "TOBUT" HIKOYASIDAGI RAMZIYLIK.

**Madina Mamatkarimova**

*JDPU o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 613-21(304)-  
guruh talabasi.*

**Annotasiya :** *Nazar Eshonqulning "Tobut" hikoyasi sahroda barpo etilgan shaharda sodir bo'lgan o'limning sabablarini bilish maqsadida kelgan taftish guruhidagi arxitektor tilidan bayon qilinadi. Asar g'ayritabiiy o'limlarning sababini bilishga bel bog'lagan bosh qahramonning kuzatishlari, fikr va xulosalari asosiga qurilgan murakkab va ziddiyatli konstruksiyaga ega bo'lib, dahriylik va shoirbozlik asosiga tiklangan shahar jamiyatining fojiali qismati mantiqiy yo'l bilan ochib berilgan.*

**Annotation:** *The story "Coffin" by the writer Nazar Eshanqul is told in the language of the architect who came here to find out the causes of the mysterious death that happened in a distant city in a remote province. Lagan has a complex and conflicting construction based on the main character's observations, thoughts and conclusions, in which the tragic fate of the city-society restored on the basis of heroism and sloganeering is revealed in a logical way.*

**Аннотация:** *Повесть «Гроб» писателя Назара Эшанкула рассказана языком зодчего, приехавшего сюда, чтобы выяснить причины таинственной смерти, случившейся в далеком городе глухой провинции. Лагань имеет сложную и противоречивую конструкцию, основанную на наблюдениях, размышлениях и выводах главного героя, в которой логично раскрывается трагическая судьба города-общества, восстановленного на основе героизма и лозунга.*

**Kalit so'zlar:** *Modernizm, ramziylik, obraz, tugun, sirli shahar, me'mor, jamiyat, Nazar Eshonqul.*

XXI asrning o'ziga xos yozuvchilaridan biri bo'lgan modernist Nazar Eshonqul o'z asarlariga har tamonlama mukammal va universal obrazni olib kirgan. "Tobut" hikoyasidagi har bir qahramon o'ziga xos xarakterga ega. Ushbu hikoyada birdaniga tushuna olmaydigan jumboq yashirindek ko'rinadi. Aslida ham shunday. Hikoyalaridagi o'zgacha ruh ufurib turganligi bilan ham yozuvchi asarlarida g'arb adabiyotiga o'xshash muhit ufurib turadi. Hozir esa "Tobut" hikoyasi bilan yaqindan tanishib, undagi ramziylik, falsafiylik va undagi asosiy g'oyalar bilan tanishishga harakat qilamiz.




Dastlab, hikoyaning nega aynan "Tobut" deb nomlangani barchaning e'tiborini jalb etadi. Tobut - jasad solinadigan, yog'ochdan yasaladigan, sandiqqa o'xshash, to'rtburchak narsa. Musulmonlar tobutdan jasadni qabristonga olib borish uchun foydalanadi. Jasad qabrga qo'yilgach tobut keyingi mayitni kutishga mahkum. Ba'zi xalqlarda esa tobutni jasad bilan birga ko'mishadi, go'yoki so'ngi manzilga tobut hamrohligida yuboradi. Sahroda qad ko'targan shaharda vafot etgan odamlarning ham so'ngi makoni tobut shaklidagi shahardir. Butun hayoti davomida qabohat, razolatga botib ketgan insonlarning o'lmay turib tobutga kelib o'rnashishi har birimizni o'ylantiradi, albatta. Bilamizki, jasadning joni chiqqach u tezroq qabrga ko'milmasa, o'zidan badbo'y, achimsiq hid chiqara boshlaydi. Shu o'rinda shahardan va odamlardan kelayotgan yoqimsiz hid ham egasini kutib yotgan qabrga ishoradir.

Hikoyada devonaga aylangan obrazga ham duch kelamiz. Aslida bu devona "tobut shaharning" me'mori bo'ladi. Shaharga safdoshlari bilan kelgan me'mor yigit-hikoya qilayotgan yigit o'sha devonaga duch kelganda unga " Hammalaring uning changalidasizlar, shahar ham uniki, u menga aytib turdi, men esa qurdim..."<sup>1</sup> deya loqayd va parishon odamlarga baqirishi uning " Dunyoga eng ulkan va odamzod hali xayoliga keltirmagan shahar quramiz" deya, puch g'oyalarga ishonib, oqibati esa jinnilikka yuz tutishi asarning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Devonaning hayqirig'i odamlarga ta'sir ham qilmaydi. Uning bunday gap-so'zlariga ko'nikib qolgan atrofdagilar pinagini ham buzmaydi. Bunday hol bugungi kundagi ba'zi loqayd odamlarning holatini ochib berishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. "Tobut shahar" dastlab qurib bitkazilgach o'zining go'zalligi, tarovati va ko'rki bilan hammani lol qoldirgan-u, oradan 5 oy o'tib shaharga ko'chib kelgan odamlarning davomiy o'limi barchani hayratga solishi, kishilarni xom- xayollarga berilmasdan, oldilariga qo'ygan maqsad sari intilishlari, qolaversa, oson erishilgan narsalar ko'p yashamasligi haqida xulosalarni beradi.

Hikoyani o'qir ekanmiz undagi qahramonlar tashqi ko'rinishini tasvirlashda yozuvchining mahoratini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. "...kiyimlari uvada, qaddi bukik, hashamdor va viqorli, shaharni ataylab masxara qilayotganday dog'-dug'ga belangan uzun hirqa kiygan, yuzidagi shish va ajinlar qishki qabristonni eslatadigan, sochi kal peshonasi uzra osilib tushgan, barvasta kishini uchratdim; gumbaz shaklida qurilgan emakxonaning o'rtasida turgan cha u og'zidan ko'pik sachratib odamlarga qo'lini bigiz qilib o'shqirar, cho'g'i so'nayotgan o'choqday taftsiz bo'lib qolgan ko'zlarini dalani bosib ketgan kuzgi qarg'alar misoli jazava va junun qoplab olgan edi."<sup>2</sup> bu tasvir yuqorida tilga olingan devona obraziga yozuvchi tomonidan berilgan tasvirdir. Me'morning bunday tasvirlanishi ham kitobxonni





o‘ylantirib qo‘yadi. Hikoya boshida shahar boshlig‘i tomonidan me‘morning ilm-fanga chanqoq, tirishqoq kishi deb aytib o‘tiladi. Hikoya oxirida esa aksincha tasvirlanishi konfliktni yuzaga chiqargan holatga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asar qahramonidagi ruhiy holat yetakchilik qiladigan bu hikoyada jamiyatdagi ikkiyuzlamachi odamlar qiyofasini ochishga qaratilgan deyish mumkin. Odamlarni atrofdagi voqelikka e‘tiborli bo‘lishi, shu bilan birgalikda, halol mehnat qilib, halol rizq topishga undaydigan hikoya deya olamiz. Shaharning qanchalik go‘zal, hashamdor, hatto, chet eldan mehmonlar kelib ko‘radigan darajada tarovatli bo‘lishiga qaramasdan unda hayot yo‘qligi, bu dunyodagi o‘tkinchi hoyu-havaslariga uchmaslik xulosasini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Nazar Eshonqul. Tobut.: 2018
2. Ulug‘bek Hamdam. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. T: 2020
3. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. Mendan- mengacha.T:2018.
4. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O‘zbekiston. 2002.
- 5 . ziyouz.com

